XALQ DEPUTATLARI G‘IJDUVON TUMANI KENGASHINING
QARORI

2022 - yil 21 - fevral VI-57-32-2-34-K/22 G‘ijduvon tuman hokimligi

Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashining 2022-yil 11-fevraldagi VI-56-12-2-34-K/22-sonli qarori nomiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni 53-moddasi 3-qismiga asosan xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashining 2022-yil 11-fevraldagi VI-56-12-2-34-K/22-sonli “**G‘ijduvon tumani bo‘yicha 2022-yilda qishloq xo‘jaligida mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslarning er solig‘i stavkalariga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdoriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”**gi qaroriga o‘zgartirish kiritish maqsadida, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashining 2022-yil 11-fevraldagi VI-56-12-2-34-K/22-sonli qarori nomida texnik xatolik qayd etilganligi sababli unda ko‘rsatilgan “jismoniy va yuridik shaxslarning er solig‘i stavkalariga” jumlasi “jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalariga” deb o‘zgartirilsin.

2. Tuman hokimligi axborot xizmati (M.Jo‘rayev), “G‘ijduvon” gazetasi tahririyati (G‘.Ibodov) ushbu qaror bilan ma’qullangan G‘ijduvon tumani bo‘yicha 2022-yil uchun jismoniy va yuridik shaxslarning yer solig‘i stavkalari bo‘yicha ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal mikdorlar yuzasidan ma’lumotlarni “G‘ijduvon” gazetasi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi **Raxmatova M. L.**